

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNVERSITETI

“KARYERA MARKAZI”

TO`G`RISIDAGI

NIZOM

*(OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGINING 2021-YIL 23-IYULDAGI 314-SONLI
BUYRUG'I ASOSIDA)*

Ushbu nizom O`zbekiston davlat jahon tillari universitetining
№ _____ kengashida tasdiqlandi.

TOSHKENT-2022

“TASDIQLAYMAN”

Universitet kengashining “ ___ ” ___ 2023-yildagi
___-sonli qarori asosida

Kengash raisi, rektor _____ U.Azizov

“ ___ ” ___ 2022-yil

O`zbekiston davlat jahon tillari “Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi” qoshidagi “Karyera markazi” to`g`risidagi NIZOM

I. Umumiy qoidalar

Mazkur nizom O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 16-iyun kuni o`tkazilgan 34-sonli yig`ilish bayoni ayrim bandlari ijrosini ta`minlash hamda O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirining 2021-yil 23-iyuldagi 314-sonli buyrug`i ijrosi yuzasidan O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2021-yil 27-iyuldagi 315-sonli buyrug`iga muvofiq **O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti** (keyingi o`rinlarda - universitet) “Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi” qoshidagi “Karyera markazi” (keyingi o`rinlarda - Markaz) faoliyati tartibini belgilaydi.

Markaz o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, ta`lim-tarbiya sohasini tartibga solishga doir O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi Hay`atining qarorlari hamda O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirining buyruqlari, universitet Kengashi qarorlari, universitet rektorining buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hamda lokal hujjatlarga asoslanib olib boradi.

Markaz bitiruvchi talabalar soni, ularning ishga joylashishi monitoringi, bitiruvchi talabalarga yirik, o`rta va kichik davlat va nodavlat korxonalar va muassasalarida mavjud ish o`rinlari haqida davriy yangilanib boradigan ma`lumot-axborotlarni taqdim borish, barcha kurs talabalarini memorandum va shartnomalar asosida amaliyotlarga yo`llash, tizimda byurokratik to`siqlar yuzaga kelishini oldini olish va tahliliy ma`lumotlarni shakllantirish hamda qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish kabi vazifalarni amalga oshiruvchi universitet tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

II. Markaz tarkibi

1. Markaz; markaz boshlig`i, mutaxassis va marketologdan iborat.
2. Markaz boshlig`i vazifasini Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi boshlig`i boshqaradi. Markaz boshlig`ining xizmat vazifalariga quyidagilar kiradi:
 - Markaz ishini tashkil qilish, xodimlar o`rtasida vazifalarni taqsimlash, yuklatilgan vazifalarni samarali va o`z vaqtida bajarilishini ta`minlash;
 - Markaz xodimlari tomonidan mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishini nazorat qilish;

- Ish o`rinlari uchun talabalardan talab etiladigan bilim, ko`nikma va malakalar bilan ularni xabardor qilib borish;
- Ta`lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirish orqali bitiruvchilar kasbiy bilimlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligini o`rganish;
- Respublika va tegishli hududlar iqtisodiyoti hamda ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda yangi ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklarni ochish bo`yicha takliflar tayyorlash;
- Ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar bilan kadrlar tayyorlash, ularni ishga joylashtirish bo`yicha shartnomalar loyihasini tuzish, shuningdek, ular bilan hamkorlik aloqalarini o`rnatish;
- Kadrlarga real ehtiyojlar va bitiruvchilarni yakuniy ishga taqsimlash hamda joylashtirish natijalari haqidagi ma`lumotlarni Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligiga taqdim etish;
- Universitetning akademik, ilmiy va kadrlar salohiyatini namoyish qilish va xorijiy oliy ta`lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o`rnatish maqsadida xalqaro ko`rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish;

3. Markaz mutaxassisi vazifasida Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi bosh mutaxassisi faoliyat olib boradi. Mutaxassisning xizmat vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Bitiruvchilar to`g`risida ma`lumotlar bazasini yaratish;
- Universitet talabalari va bitiruvchilarini hozirda mavjud bo`lgan va mehnat bozorlari talab qilayotgan bo`sh ish o`rinlari haqida ma`lumot berish;
- Universitetda bitiruvchilar uchun “Karyera kuni” axborot-tanishuv tadbiri va mehnat yarmarkalarini tashkil etish;
- Mehnat bozorida kadrlarga talab va taklif nisbatini e`tiborga olgan holda ta`lim xizmatlari iste`molchilarining ehtiyojlari va imkoniyatlari to`g`risida ma`lumotlar bazasini yaratish.

Yarmarka ishtirokchilari — Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi, bosh boshqarmasi, shahar viloyat bo`limlari, bo`lim tasarrufidagi maktablar, bitiruvchi kurs talabalari, kasb-hunar kollejlari **bitiruvchi kurs o`quvchilari, ishsizlar**, bo`sh ish o`rinlari mavjud bo`lgan **tashkilotlar**, xususiy tashkilotlar, **tijorat banklari**, shuningdek yarmarkada ishtirok etish istagini bildirgan boshqa jismoniy va yuridik shaxslarni ushbu tadbirda ishtirok etishlarini ta`minlash.

- Yarmarkada ish taklif qiluvchi tashkilotlar o`zlarida mavjud bo`sh ish o`rinlar, minitexnologiyalar, tijorat krediti turlari shuningdek boshqa **ma`lumotlarni taqdim qilish**.
- Yarmarka o`tkazish joyi, sanasi, vaqti va telefon raqamlari ommaviy axborot vositalarida yarmarka o`tkazishdan **10 kun oldin e`lon qilinsin**.
- Yarmarka soat **9.00 dan 18.00 gacha** o`tkazilsin (**yakshanba kuni yarmarka o`tkazilmasin**).

Yarmarka ishtirokchilariga quyidagilar taqiqlanadi

- jamoat xavfsizligi, odamlarning hayoti va **sogʻligʻiga xavf tugʻdiruvchi**, yarmarkani tashkil qilish va oʻtkazishning belgilangan tartibini buzuvchi yoki bunday xatti-harakatlarni sodir qilishga undovchi harakatlarni bajarilishi;
- yarmarka oʻtkazilayotgan joyga sovuq, oʻqotar, gazli yoki boshqa **qurollar**, pirotexnika buyumlari, **oʻq-dorilar**, oson alanganadigan va **zaharli moddalar**, sanchuvchi, kesuvchi va boshqa predmetlarni, shuningdek foydalanilishi odamlarning hayoti va sogʻligʻiga xavf tugʻdirishi yoki fuqarolar va tashkilotlarga **moddiy zarar etkazishi mumkin** boʻlgan maxsus tayyorlangan yoki moslashtirilgan predmetlarni olib kirish;
- yarmarka oʻtkazilayotgan joyga **hayvonlar bilan kelish**;
- **mast holatda** yoki giyohvand vositalar, psixotrop yoki boshqa **moddalarni isteʼmol qilish** oqibatida insonning intellektual-iroda faoliyatiga taʼsir koʻrsatuvchi holatda boʻlish.

4. Markaz marketologi vazifasida Marketing va talabalar amaliyoti boʻlimi marketologi faoliyat olib boradi. Marketologning xizmat vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Ish oʻrinlari uchun talabalardan talab etiladigan bilim, koʻnikma va malakalar bilan ularni xabardor qilib borish;
- Buyurtmalar portfelini shakllantirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash;
- Taʼlim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirish orqali bitiruvchilar kasbiy bilimlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligini oʻrganish;
- Ish beruvchilarning taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklarga ehtiyojlarini hisobga olgan kadrlarga boʻlgan joriy va istiqbolli “buyurtmalar portfeli”ni shakllantirish;
- Ommaviy axborot vositalari orqali ish beruvchilarga bitiruvchilar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni eʼlon qilish va universitet veb-saytiga joylashtirish.

III. Markazning maqsadi

5. Talabalarning shaxsiy oʻsishi va malakasini oshirishda yordam berish, talabalarni bilimli boʻlishiga va ularni oʻz sohasida tarjibasini oshirishga koʻmaklashish, jamiyatga salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularni ish topishga yordamlashish, hamkor korxonalar va tashkilot vakillari har oyda kamida ikki marta kelib universitet talabalarini seleksiya ishlarini amalga oshirishlari uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish, talabalarga mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash va ish beruvchilar bilan suhbatdan oʻtish usullarini oʻrganish boʻyicha bilim, malaka va koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida “Karyerani rivojlantirish” nomli maxsus (online) kurs tashkil etish hamda nazoratga olish, oliy taʼlim muassasasida talaba va ish beruvchilarni bir-biriga bogʻlovchi maqsadlarni oʻtashdan iborat.

IV. Markazning vazifalari

6. Markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalarga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida, mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash ko'nikmalari, ishga kirish uchun rezyumeni tayyorlash va ish beruvchi bilan suhbatdan o'tish usullarini o'rgatish, ishga kirish uchun talab etiladigan hujjatlar bilan tanishtirish;
- Ta'lim muassasalarining ilg'or mutaxassislarini jalb qilgan holda talabalarni kasbga yo'naltirish, mehnat bozorida mavjud va istiqboldagi holat, muayyan kasbga, ish beruvchilarga, istiqbolli ta'lim sohalariga oid zamonaviy ma'lumotlar bilan tanishtirish;
- Mehnat organlari, ta'lim muassasalari, manfaatdor idoralar va tashkilotlar ishtirokida ish o'rinlari yarmarkalari, karyera kunlarini tashkil etish va talabalarni kelajakda kasbiy faoliyatga qiziqishlarini kuchaytiruvchi tadbirlarini amalga oshirish;
- Universitetning mutaxassislar tayyorlash, bitiruvchilarni ishga joylashtirish, universitetni muqaddam tamomlagan bitiruvchilarning hozirgi mehnat faoliyati (karyerasi) to'g'risidagi hamda ushbu yo'nalishdagi boshqa tashkiliy materiallarni tayyorlash va nashr qilish;
- Ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirib, ta'lim xizmatlariga qo'yilgan, ya'ni bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy mahoratini (malakaviy sifatlarini) o'rganish hamda ularning ish beruvchilar (iste'molchilar) talablariga muvofiqligini aniqlash;
- Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim xizmatlari bozori va kon'yukturasiga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil omillar (segmentlar) o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish asosida bitiruvchilarni oldindan ishga taqsimlash tizimini tashkil qilish va amalga oshirish;
- Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarga talab va takliflar nisbatini o'z ichiga olgan holda ishga taqsimlash ob'yektlari – ta'lim xizmatlari iste'molchilari (ish beruvchi korxonalar, turli mulkchilik shaklida ega bo'lgan tashkilotlar – davlat va mahalliy boshqaruv organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari va hokazo) tuzilmasini baholash, geografik joylashishini aniqlash va guruhlash, potensial imkoniyatlarini tashxis qilish orqali to'liq ma'lumotlar bankini yaratish;
- Joriy o'quv yili bitiruvchilari haqida (ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar kesimida davlat granti va to'lov-shartnoma asosida kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatilgan holda) ma'lumotlar bankini yaratish;
- Joriy o'quv yilida va o'tgan o'quv yillar davomida ishga joylashgan yosh mutaxassislar bilan qayta aloqalar o'rnatish, zarur hollarda ularga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatish, maslahatlar berish hamda mehnat faoliyati natijalarini umumlashtirish;
- Ish beruvchilar (iste'molchilar) ga axborotlar vastasida ta'sir ko'rsatish yo'llarini tanlash, ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar radio-televideniye, veb-sayt) orqali bitiruvchilar to'g'risida (viloyatlar bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar kesimida) ma'lumotlar e'lon qilinishini, universitet

veb-saytida joylashtirilishini, ma'lumotlar nashr qilish va ularni iste'molchilar (ish beruvchilar) ga yetkazilishini ta'minlash, reklamalar mazmuni, reklama modullarining xomaki nusxalari, maqolalar matnlari, video va audio yozuvlarining ssenariylarini tayyorlashda ishtirok etish;

- Yuqori (bitiruvchi) kurslar talabalarida kasbiy mahorat sifatlarining bakalavr (magistr) ma'lumot darajasiga va ish beruvchilar (iste'molchilar) talablariga muvofiq shakllanishi jarayonini o'rganish, tahlil qilish hamda marketing izlanishlari natijalari tahlilidan kelib chiqqan holda raqobatbardosh bitiruvchi shaxsini shakllantirish maqsadida fakultetlar, tegishli kafedralar va ilmiy, o'quv-metodik bo'limlarga buyurtmachilar (iste'molchilar) tavsiyalarini taqdim etish;
- Turdosh oliy ta'lim muassasalarida bakalavriyat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlanayotgan raqobatli bitiruvchilarning kasbiy mahorati darajasi, ularning ustunligi va kamchiligini baholash hamda o'z bitiruvchilari bilan taqqoslash;
- Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini hisobga olgan holda hamda bakalavr va magistr bitiruvchilarining kasbiy mahorati (malakaviy sifatleri) ni yaxshilash maqsadida raqobatbardosh bo'lg'usi mutaxassis shaxsini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- Bakalavriyat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning imkoniyatlari va ustunliklari namoyish qilish maqsadida oliy ta'lim muassasasining respublika, mintaqaviy va xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda ishtirok etishini ta'minlash; muassasa hududida ko'rgazma va vitrinali ekspozitsiyalar tashkil etish;
- Universitet va ish beruvchi tashkilot o'rtasida imzolangan shartnomalarga muvofiq ish beruvchilarni belgilangan muddatlarda bitiruvchilar bilan ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasasining barcha tegishli bo'linmalari bilan talabalar qabuli va bitiruvchilarni ishga taqsimlash rejalarini muvofiqlashtirish;
- Universitetning tegishli bo'linmalari (kengashlar, fakultetlar, kafedralar va hokozolar) bilan hamkorlikda bakalavriyat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini davlat granti asosida bitiruvchilarning uch yil kafolatli ishlashi, shuningdek, uch yillik majburiy ishlab berish shartini o'tayotgan yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyati saviyasini oshirish borasidagi ishlar va ularning xizmat pog'onalaridan ko'tarilishiga ko'maklashish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

V. Markazning huquqlari va majburiyatlari

7. Markaz quyidagi huquqlarga ega:

- Markaz vakolatlariga kirgan zaruriy ishlarni amalga oshirish uchun universitetning tegishli bo'limlaridan (ilmiy va uslubiy kengashlar, o'quv-uslubiy boshqarmalar, fakultetlar, kafedralar) axborotlar taqdim qilishni talab qilish;
- Universitetning professor-o'qituvchilari va ish beruvchi (iste'molchi) muassasa, korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini (kelishuv

asosida) o`rnatilgan tartibda marketing tadqiqotlarini o`tkazish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash hamda ular haqidagi axborotlarni tarqatish tizimini loyihalash va tashkil qilishga jalb qilish;

- DTS doirasida ish beruvchi (iste'molchi) larning talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda bitiruvchilarning kasbiy sifatlari va raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo`yicha takliflar kiritish;
- Ish beruvchilar (iste'molchilar) ning yosh mutaxassislar haqidagi fikrlari, e`tirozlari, kamchiliklari va rad qilinishi sabablari va ta'lim sifatini oshirishga oid takliflarini tahlil qilish hamda ta'lim xizmatlari bozori talablariga javob beruvchi yangi avlod bitiruvchilarini shakllantirish bo`yicha, jumladan, tayanch oliy ta'lim muassasalariga tavsiyalar berish;
- Ish beruvchilar (iste'molchilar) ning takliflari asosida mavjud ta'lim metodikasi (texnologiyalari) dagi kamchiliklarni bartaraf qilish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Bitiruvchilarni ishga taqsimlash va joylashtirish bo`yicha tegishli muassasa, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorliklarni amalga oshirish;
- Bitiruvchilar to`g`risida reklamalar mazmuni va ommaviy axborot vositalari, bosma nashrlar orqali ma'lumotlar e`lon qilinishi hamda iste'molchilarga yetkazilishi bo`yicha fakultetlar, taalluqli kafedralar faoliyati samaradorligini baholash;
- Bitiruvchilarning imkoniyatlari va ustunliklarini namoyish qilish maqsadida oliy ta'lim muassasasi xodimlarining respublika va xalqaro ko`rgazmalar, yarmarkalar, uchrashuvlar va konferensiyalarda ishtirok etishini tashkil etish;
- Markaz faoliyatiga mas'ul etib belgilangan Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi xodimlarining ish faoliyati natijalariga ko`ra o`rnatilgan tartibda rag`batlantirish yoki choralar ko`rish bo`yicha takliflar kiritish.

8. Markaz quyidagi majburiyatlarga ega:

- Ma'lumotlar bazasi va hujjatlar loyihalarini sifatli va o`z vaqtida tayyorlash hamda o`rnatilgan tartibda tasdiqlash, vazirlikka asoslantirilgan takliflar berish;
- Universitetda bitiruvchi talabalar ishga joylashishi va uning monitoringini mavjud talabalar asosida tashkil qilish, ushbu jarayon me'yoriy va boshqa hujjatlarini yuritish, ulardagi talablarga to`la rioya etish.

VI. Markazning tuzilishi va moliyaviy ta'minlanishi

9. Markaz faoliyatini Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi xodimlari amalga oshiradi.

10. Markaz faoliyatiga mas'ul bo`lgan xodimlarga institutning budjetdan tashqari mablag`lari hisobidann qo`shimcha ustamalar belgilanadi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

11. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo`yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlari asosida hal qilinadi.

12. Mazkur Nizom universitet Kengashining majlisida muhokama qilinib qabul qilingan va universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Mazkur Nizomga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish qonunchilik hujjatlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim vazirligi qaror va buyruqlari, universitet Kengashi qarori amalga oshiriladi.